

Мұғаллим ҳәм үзліксіз билимлендіриў



ISSN 2181-7138

№ 6/6 - 2022 жыл

Илимий-методикалық журнал

Редактор:
А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:
Максат АЙЫМБЕТОВ
Нагмет АЙЫМБЕТОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ
Дилшодхұжа АЙТБАЕВ
Мариғжон АХМЕДОВ
Гулзала БАЙМУРАТОВА
Айдын СУЛТАНОВА
Дилдора ДАВРОНОВА
Маманазар ДЖУМАЕВ
Мәмбет ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Мырзамурат ЖУМАМУРАТОВ
Уролбой МИРСАНОВ
Даврон ИСМОИЛОВ
Феруза САПАЕВА
Раънохон ОРИПОВА
Арзы ПАЗЫЛОВ
Джавдод ПҮЛЛАТОВ
Тажибай УТЕБАЕВ
Амина ТЕМИРБЕКОВА
Саодат ТОШТЕМИРОВА
Нурзода ТОШЕВА
Ризамат ШОДИЕВ
Сурайе ШАРИПОВА
Рухшона ИСРОИЛОВА
Дүстназар ХИММАТАЛИЕВ
Гулрухсөр ЭРГАШЕВА

Шөлкемлестириўшилер:
Карақалпақстан Республикасы
Халық билимлендіриў
Министрлігі, ӨЗПИИИ
Карақалпақстан филиалы

Өзбекстан Республикасы
Министрлер Кабинети
жынындағы Жоқарғы
Аттестация Комиссиясы
Президиумының 25.10.2007
жыл (№138) қаары менен
дизимге алынды

Карақалпақстан Баспа сөз ҳәм
хабар агентлиги тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге
алынды №01-044-санлы гүйалық
берилген.
Мәнзил: Нөкис қаласы,
Ерназар Алакөз көшеси №54
Тел.: 224-23-00
e-mail: uzniipnkkf@umail.uz,
mugallim-pednauk@umail.uz
www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz

Журналга келген мәқалаларға жүйелі қайтарылмайды, журналда жарияланған мәқалалардан
алынған үзінділер «Мұғаллим ҳәм үзліксіз билимлендіриў» журналынан алынды, дең корсетилгі
шарт. Журналға 5-6 бет колеміндеғи материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтінде
электрон версиясы менен бирге қабыл етіледи. Мәқалада көлтирилген мәглұмматтарға автор жүйәпкер.

МАЗМУНЫ

ТИЛ ҲЭМ ӘДЕБИЯТ

Mavlonova K. Ona tili darslarida matn tuzilishiga doir mashqlar tasnifi	5
Amirkulova Z. M., Kurbanova S. N. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish(keys -stadi misolida)	10
Бабаева Ш. Б. Метод моделирования - pragmaticеский аспект в лингвистике	12

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Сапаров Т. Т. Саламатлыкты саклауға бағдарланған технологиялар хакқында түснік	19
Abdullaev A., Saparov A. Bult texnologiyalarinan paydalaniw metodikasi	24
Utemuratov B. K. Uliwma orta bilim beriw mektep oqiwshilarında kommunikativlik kompetenciyalardi qálidestiriw strategiyalari	34
Байжанов Т.Ж. Мактабгача таълим тизимида педагог ходимларнинг касбий компетентлігінің ошириш масалалари	39
Кенесбаева Э. Ж. Модулли технологиялар ёрдамида ўқучиларнинг интеллектуал сохаларини ривожлантиришинин дидактик имкониятлари	43
Norliyev A. Boshlang'ich sinflarda adabiy ta'limining umumnazaryi masalalari va o'quvchilarda intellektuel anglash malakalarini shakllantirish	46
Pardayeva K. Z., Zamonaova Sh. S. Bo'lajak o'qituvchilarning mediakompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari	50
Sayfullaev G. M., Sattorova D., Xaitova N. Boshlang'ich sınıf o'quvchilarida tabiiy bilimlar haqidagi tasavvur va tushunchalarini shakllantirish hamda rivojlantirishning uslubiy asoslari	54
Ibrohimova M. F. Boshlang'ich sinflarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda grafik va jadval ko'rinishidagi topshiriqlardan foydalanish	58
Olloqova O'. M. O'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini shakllantirishning nazariy-metodik asoslari	61
Qurbanova Sh. N. Boshlang'ich sınıf texnologiya darslariga intensiv ta'limni tashkil etish	65
Yusufzoda Sh. Y. Alifbe davrida yozuv teknikasini o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari	71
Жаббарова А. Ш. Бошлангич синфларда бадий асар эпизодлари масаласи ва эстетик таҳлил методлари	75
Пұлотова Ю. Бошлангич синф она тили ва ўқиши дарсларида ахборот-ресурслар интеграциясини тәмминлашда ўқытувчи компетентлігі	78
Пұлотова Ю. Бошлангич синф она тили ва ўқиши дарсларида ахборот-ресурслар интеграцияси методик мұаммo сифатыда	84
Toшпұлатова Н. Илмий дунёкашни шакллантириш ва ўқувчиларни ақлий тарбиялаш (аниқ ва табиий фанлар мисолида)	91
Самиев А. С. Ўқувчиларни маънавий-ахлоқий тарбиясини такомиллаштиришда ҳадис намуналаридан фойдаланиш	96
Салохитдинова Н. М. Бошлангич синфларда интеграциялашган таълимни такомиллаштириш технологияси	102
Самиев А. С. Ҳадис маънавият ва ахлоқ	107
Имонова М. Б. Характер акцентуациясининг деструктив хулқ шаклланишига оиласын тасьири	113
Джуракулова А. Х., Холикмуродова Д. Х. Бошлангич синф ўқувчиларнинг коммуникатив көбилиятларини шакллантиришининг психология ва педагогик хусусиятлари	116
Xidirova M. M. O'quvchi-yoshlarning ma'naviy tafakkurini shakllantirishda oila va mahallaning o'rni	120

ТИЛ ҲӘМ ӘДЕБИЯТ



ONA TILI DARSLARIDA MATN TUZILISHIGA DOIR MASHQLAR TASNIFI

Mavlonova K.

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Ona tili va adabiyot ta'limi kafedrasи dotsenti,

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Tayanch so'zlar: matn tuzilishi, qoida, mashq, tahliliy (analitik) konstruksiyalash-sintezlash, qisman ijodiy konstruksiyalash-sintezlash, matn tuzish va xatolar ustida ishlash, tuzilgan matni tahrir qilish mashqlari.

Ключевые слова: структура текста, правило, упражнение, аналитическое (аналитическое) построение-синтез, частично творческое построение-синтез, композиция текста и работа над ошибками, упражнения по редактированию структурированного текста.

Key words: text structure, rule, exercise, analytical (analytical) construction-synthesis, partially creative construction-synthesis, text composition and error correction, structured text editing exercises.

Ona tili darslarida o'quvchilarga matn tuzishni o'rgatishga doir har bir ta'limi qadamning natijasi mashq turlari yordamida lingistik kompetensiyalarni shakllantirish bosqichida yakunlanadi. Zero, har bir til hodisasi ma'lum bir ta'lim mazmuni bilan belgilanuvchi metodik tizimga ega bo'lsa-da, barcha matniy til birliklari qoida bilan tushuntirilishi, mashqlar bilan mustahkamlanishiga ko'ra umumiylilik, metodik jihatdan o'xshashlik kasb etadi. Qoidalar orqali taqdim etilgan bilimlarni qay tarzda o'zlashtirish, qanday mustahkamlovchi mashqlardan foydalanish, ya'ni nimalarini amaliyatga joriy etish, ushbu tizimga doir qanday ko'nikmalar shakllanishi lozimligi, ko'nikmalar qanday mashqlar va ish turlari yordamida malakaga aylanadi-yu, tegishli kompetensiylar shakllanadi, kabi bir qator savollar yuzaga keladi. Tadqiqot ishimiz mazkur savollarga munosib javob topishi kerak bo'лади.

Qoida bilan tanishilgach, bajariladigan dastlabki mashq shu qoidani, unda tilga olingen tushunchalarni tahlil jarayonida qo'llash, bu ishlar pirovardida bevosita matn tuzilishi bilan bog'liq amaliy bajariladigan mashqlar orgali faollashtirish hisoblanadi. Lekin bu ishlarning barchasi matn asosida tashkil etiladi. Chunki I.Y.Gas bizga qisman hamfikr tarzda ta'kidlaganidek, "Kontekstdan uzilgan va ma'noviy bog'lanishdan mahrum gaplardan (yoki bundan ham yomoni – ayrim so'z shakllaridan) tuzilgan an'anaviy mashqlar madaniyatli-nutqiylar malakalarni rivojlantirishda kamroq samara beradi" [Гац, 2007: 9]. Qisman deyishimiz sababi shundaki, bog'lovchi vositalarni mustahkamlashda juft-juft qilib berilgan gaplardan foydalanish mumkin. Hatto maqol, hadis, hikmatli so'z, she'riy misralar kiritish lozim bo'lganda, bittadan gap berish mashq materialining ixcham bo'lishidan tashqari, yetarli miqdorda ko'p bo'lishini ham ta'minlash imkonini beradi.

Matn tuzilishini o'rganish, matn tuzish, bog'lovchi vositalarni qo'llash, maqol, hadis, hikmatli so'z, she'riy misralarni matn tarkibiga kiritish talab etiladigan mashqlarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- 1) tahliliy (analitik) mashqlar;
- 2) konstruksiyalash-sintezlash mashqlari;
- 3) qisman ijodiy konstruksiyalash-sintezlash mashqlari;
- 4) matn tuzish va xatolar ustida ishlash mashqlari;
- 5) tuzilgan matnni tahrir qilish mashqlari.

Quyida ushbu mashq turlari haqida to'xtalamiz.

I. Qoidadan matn tuzish jarayonida foydalanishni o'rgatish tahliliy (analitik) mashqlar bajarish jarayonidagina samarali amalga oshiriladi. Tahlil til hodisasini qoida bilan tushuntirish mazmunida kechadi. Tahliliy (analitik) mashqlar o'quvchilarning aqliy, o'quv-biluv faoliyatini faollashtiradi, ongliklarga asoslangan amaliy harakatlar o'ziga xos malakalarni tezroq shakllantriradi.

Til hodisasini qoida bilan izohlab tahlil qilish jarayoni borib-borib og'zaki bajarilmaydigan, qisqargan tarzda ongda kechadigan jarayonga ko'chadi. Bu holat qoidadan og'zaki tahlilga murojaat etmay, ikki vositadan birini tahlil asosida tanlash paytida kuzatiladi. Faqat bir holatda – o'quvchi til vositasini noto'g'ri tanlaganda, qoidani eslash orqali og'zaki muhokama o'tkazilishi mustasno emas. Quyidagi mashq turlarini tahliliy mashq deb hisoblash mumkin:

Matndagi biror gapning mazmuniga ko'ra tushib qolgan tinish belgilarini o'z o'rniqa qo'yish.

Berilgan mavzular nima haqda, ularning qaysi jihatini aks ettirib yozish kerakligini (namunadagidek) izohlash.

Uch nomdan qaysi biri berilgan matnga sarlavha bo'la olishimi aniqlash va izohlash.

Kichik hikoya uchun tanlangan nomni aynan izohlaydigan ikki fikrni matndan ajratib yozish.

Berilgan nomlarni o'qish. Faqat mavzu bo'la oladigan nomlarni chap ustunga, ham mavzu, ham sarlavha bo'la oladiganlarini o'ng ustunga yozish.

Berilgan matnni o'qib, sarlavha matnning qaysi jihatini aks ettirayotganini, qo'yilgan tinish belgisini izohlash.

Berilgan sarlavhalarga tegishli tinish belgilarini qo'yish.

Masalan, matn qismlarida birinchi gap qanday boshlangani, birinchi so'z qanday yozilgani, gap oxirida qo'yilgan tinish belgisi – boringki, gaplarning chegarasini izohlash aks etgan qoida uchun:

Quyidagi matnni o'qing. Uning qismlari, birinchi gapi, har bir gapning birinchi so'zi qanday boshlanganini, gap oxiriga qanday tinish belgisi qo'yilganini izohlang.

Quyidagi matn qanday boshlanishi, gaplarning chegarasi qanday belgilanishi kerakligini tushuntirish va ko'chiring.

O'quvchilar bu kabi mashq shartlarini bajarish jarayonida xatboshi, bosh harf, nuqta, so'roq, undov belgisi so'zlarini qo'llab tushuntirib beradilar. Natijada ushbu tushunchalar amaliy faoliyat orqali o'zlashadi.

Bu kabi mashqlar matndagi gaplarning chegarasini aniqlash, matn qismlari nechta gapdan iborat ekanligini aytish topshiriqlari bilan murakkablashtiriladi. Dastlab mashq materiali faqat sodda gaplardan tanlansa, keyinroq qo'shma gaplar, ko'chirma gaplar, tarkibiga hadis, maqol, hikmatli so'z kiritilgan gaplar, undalmali, kirish so'z va kiritmali gaplar aralashtiriladi. Bunday vaziyatlarda o'quvchilar gaplarning chegarasini aniqlash, gaplar miqdorini ko'rsatish ishida ikkilana boshlaydilar. Masalan, qo'shma gap ikki yoki undan ortiq sodda gapdan tuziladi. Bu gaplar mustaqil gaplar deb hisoblanmaydi. Shuning uchun o'qituvchi zarur holatlarda qo'shimcha izoh berib o'tishi kerak.

МУГАДИСЛАР МАТНЛАРИ

Ba'zan bir gapning o'zi uzundan-uzun bo'lib qoladi. U matnda alohida bir qismni tashkil etishi ham mumkin. O'qituvchi bunday uzun gapning bitta ekanligi, uning o'zi ayrim matn qismi bo'la olishi ham mumkinligiga e'tiborni qaratish uchun shunday qismli matn tanlaydi va har bir qismning nechta gapdan iborat ekanligini aniqlash vazifasini topshiradi. Masalan:

Topshiriq. Matnni o'qing. Matn qismlarida nechtadan gap borligini aniqlang.

I. Kurashning yangi qoidalariga ko'ra, ishlatalgan usullarga bajarilishiga mos ravishda "chala", "yonbosh", "halol" baholari, qoidaga zid harakatlarga esa "tanbeh", "dakki", "g'irrom" jazolari beriladi. Kurashuvchi "halol" bahosini olsa (yoki raqibi "g'irrom" bilan jazolanasa), bu uning g'alabasini bildiradi. Ikki bor "yonbosh" bahosini olish (yoki raqibining ikki bor "dakki" bilan jazolanishi) ham g'alabani anglatadi. "Chala" baholari hisobga olib borilib, ko'p baho olgan kurashchiga g'alaba beriladi.

II. Kurash faollarining sa'y-harakatlari faqat O'zbekiston bilan chegaralanib qolmasdan, ular 1992-yildan boshlab Janubiy Koreya, Kanada, Yaponiya, Hindiston, AQSH, Monako va Rossiyada o'tkazilgan qator nufuzli sport anjumanlarida o'zbek kurashini tanitishga qaratilgan tadbirlarga bosh-qosh bo'ldilar. (Asror Mo'minov)

II. Konstruksiyalash-sintezlash mashqlari gap yoki matn tuzish mazmunida bo'ladi. Bunda konstruksiya tushunchasi qolip, model tushunchalaridan tuzilganlik ma'nosiga ko'ra farqlanadi. Matn qolipi muayyan shaklga keltirilgan gaplar yig'indisini ifoda etadi: gaplar miqdori va matn hajmi qat'iy chegaralangan bo'ladi. Matn modeli tushunchasi ham shu kabi xususiyat kasb etadi. Lekin konstruksiya tuzish ma'nosini bildirgani uchun ham na miqdoriy va na hajm jihatdan chegaraga ega bo'lmaydi. Sinfda 30 o'quvchi bo'lsa, shu 30 o'quvchining tuzgan matnlari deyarli bir-biriga o'xshamaydi. To'g'ri, gap konstruksiyasi deganda ma'lum gap qurilishi nazarda tutiladi. Lekin matnga nisbatan aytganda, muayyan qurilma ko'zda tutilmaydi. Zero, matn biror mavzuda bir-biriga deyarli shaklan o'xshamagan gaplar tuzish yo'lli bilan tuziladi, yaratiladi, yuzaga keltiriladi.

Sintezlash tushunchasi asosan birlashtirish ma'nosini angalatadi, unda, tabiiyki, qo'shish, kiritish ma'nolari ham aks etadi. Matndagi gaplarga nuqtalar o'rniiga foydalanish uchun berilgan so'zlardan, bog'lovchi vositalardan birini qo'yish, gaplarga yoki matnga maqollardan, hikmatli so'zlardan, hadislardan, she'riy parchalardan birinchi kiritish ham asosan sintezlash jarayonini, gaplarning shakli qisman o'zgaradigan holatlarda konstruksiyalash amalini ifodalaydi.

Shuni ham eslatish lozimki, ushbu turdagи mashqlar vaziyatdan kelib chiqqan holda ba'zan tahlilga murojaat etish zaruriyatidan xoli emas.

Quyida konstruksiyalash-sintezlash tipidagi mashqlardan namunalar keltiramiz.

Berilgan sarlavhalarni darak yoki so'roq, yoki undov gap shaklidagi mavzularga aylantirib yozish.

Berilgan mavzularini o'qib, qay biri bosh, qay biri kichik mavzu bo'la olishini aniqlash va ajratilgan ustunlarga yozish.

Berilgan matn qismlarining joylashish tartibini chizmaga joylashtirish orqali ularning izchilligini tiklash, o'zgarishlar sababini izohlash.

Berilgan matn qismlarini kichik mavzular asosida tartib bilan joylashtirish.

Masalan: Quyida "Ko'z nurini asraylik" mavzusidagi matn uchun reja bo'la oladigan bandlar tartibsiz berilgan. Ular qanday ketma-ketlikda joylashishi kerakligini aniqlang va tartib bilan yozing.

Ko'z nurining pasayishiga sabab bo'luvchi odatlar	Ko'z nurini asrashga oid tavsiyalar
Ko'z nuri – beba ho ne'mat	Ko'z nuri uchun foydali mahsulotlar

Berilgan so‘z birikmalarini matnga tasnif sifatida kiritib ko‘chirish.

Berilgan she’riy misralarni avval, mualif gapini keyin joylashtirib, ko‘chirma gap tuzish.

Berilgan gaplardan ... deb o‘yladi, ... deb xayol qildi, ... deb fikr-mulohaza qildi, ... deya xavotir oldi yoki degan fikrdaman, degan gap, deganday bo‘ldi, deganday ishora qildi kabi birliklar yordamida ko‘chirma gap hosil qilib yozish.

III. Qisman ijodiy konstruksiyalash-sintezlash mashqlari o‘quvchilarning o‘z nutqiga bo‘lgan e’tiborini kuchayiradi, uni boyitish imkoniyatini ochib beradi, mustaqilligini oshiradi. Qisman ijodiy deyilganiga sabab matnga qo‘shiladigan faktik ma’lumotlarni, bog‘lovchi vositalarni, maqol, matal, hikmatli so‘z, hadis va boshqalarni o‘quvchi o‘zi o‘ylab yoki biror manbadan qidirib topadi va matnga, matn tarkibidagi gapga kiritadi, ya’ni ham ijodiy faoliyat ko‘rsatadi, ham konstruksiyalash-sintezlash bilan mashg‘ul bo‘ladi. Matn yoki gap mazmunidan kelib chiqib mazmun sofligini, ta’sirchanligini ta’minlaydi.

Bunday mashq turlari sirasida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

Berilgan matnlarga sarlavhalar tanlash.

Berilgan jadvalni matnning mazmuni va tuzilishi asosida to‘ldirish.

Berilgan matnga biror she’riy yoki she’riy misralar kiritish, matnning davomini yozish.

Matn mazmuniga mos ikki yoki to‘rt misrali she’r tanlash va yozish.

Berilgan matnga hadis (maqol, hikmatli so‘z) kiritish va qo‘yilgan tinish belgilarini izohlash.

Berilgan mavzuda tuziladigan matnga ikki misra she’r yoki hikmatli so‘z topib kiritish.

Matnga tasnif, tezis, rivoyat, hadis, maqol va mattallar, hikmatli so‘zlarni ko‘chirma gap shaklida kiritish, unda she’riy misralarni joylashtirishda mazmundan kelib chiqish qiyinchiligi tug‘ilsa, ularni qay tarzda kiritish, joylashtirish kerakligi tashkiliy-texnik masalalarining hal etilishiga bog‘liq bo‘ladi. O‘qurchi matnga kiritish lozim bo‘lgan she’riy misralar, hadis, rivoyat, maqol va hikmatli so‘zlarni o‘qurchi to‘g’ri tanlasa, matnning mavzusini ko‘rsatish yoki mavzuni sarlavha tarzida ifodalasa, matn (insho)ga reja tuzsa, bular yaratiladigan matnning mazmundor, ta’sirchanligi ta’milnadi. Lekin tashkiliy-texnik xatolarning kelib chiqishi ijodiy yozma ishning mazmuniy jihatidan tashqari rasmiy lashtirish talablariga rioya qilishda ham o‘z ifodasini topadi.

IV. “Ona tili” darsliklarida asosan matn tuzish va kamdan-kam matndagi xatolarni aniqlash tavsifidagi mashqlar berilgan. Bunday mashqlar shartida ba’zan ma’lum topshiriq ham aks etadi. Masalan: Berilgan mavzuda dialogli kichik insho yozish. Berilgan mavzuda bir yoki bir necha qismli matn tuzish. Bu kabi maxsus topshiriqlarning berilishidan qat’i nazar o‘quvchilar nima haqda yozish kerakligi haqida o‘ylashdan tashqari, qanday yozish kerakligi (matn tuzish qoidalari) haqida bosh qotiradilar. Eng muhimmi, yozuvchilar kabi so‘z tanlash ustida ishlaysilar. Lekin matn tuzish ko‘nikmasi hosil bo‘limguncha, bu ish qiyinlik qilaveradi.

O.O.Xarchenko matn tuzishga doir bilimlarning malakaga ko‘chish jarayoni haqida shunday yozadi: “Binobarin, nutqi yishlarni shunday qurish talab etiladiki, matn haqidagi bilimlarni uni yaratish uchun zarur xususiy malakalarga transformatsiyalash ta’milnasi, boshqacha aytganda o‘quvchilarga matniy kompetensiyani o‘rgatish kerak Ushbu tushuncha ilmiy muomalaga rus tili matn yaratishga doir bilimlar asoslarini tadqiq etgan M.Y.Dimarskiy tomonidan kiritilgan” [Харченко, 2007; 37].

V. Tuzilgan matnni tahrir qilish mashqlari eng kam bajariladigan mashq turi sanaladi. I.A.Sotova olib borgan kuzatishlardan ma’lum bo‘lishicha, “o‘quvchilar o‘zları tuzgan matnlarni takomillashtirishga zaruriyat sezmaydilar. N.Jinkin va V.Mamushinlar bu holatni o‘ziga xos psixologik omilning: fikr bayon qilish ustidagi ishning tugallanishi bilan tug‘ilgan qanoat hissi ta’siri bilan izohlaydilar, bu narsa matn muallifiga yaratilgan matnga tanqidiy baho berish xalaqit beradi. Ta’lim oluvchining o‘zi o‘z xatolarini sezmaydi” [Xarchenko, 2007; 37]. Ilg‘or ish tajribali ona tili o‘qituvchilari o‘quvchilarga bir-birining tuzgan matnnini tekshirishni topshirar ekanlar, yuqorida bayon qilingan ruhiy holatni hisobga olganday

bo‘ladilar: O‘quvchilar o‘zlarining xatolarini payqamaydilar, lekin sinfdoshlari yo‘l qo‘yan ayrim xatolarni ko‘ra oladilar. Aslida o‘quvchilarning bir-birlarining tuzgan matnlarini tekshirib, xatolarini aniqlashlari pirovardida o‘z ishlariiga tanqidiy munosabat bilan qarash hissini paydo qiladi. 6-sinf “Ona tili” darsligida ushbu mazmundagi topshiriqlar keltirilgan:

Partadoshingiz bilan yozgan tarjimayı holingizni almashtiring. Matn bilan tanishib, xatolaringiz ustida birkalikda ishlang.

Tarjimayı hol matnidagi xatoliklarni aniqlang va ularni to‘g‘rilab, matnni ko‘chiring.

Uyga vazifa. O‘rganganlaringiz asosida oila a’zolaringizdan biriga o‘z tarjimayı holini yozdiring. Xatoliklar bo‘lsa aniqlab, uni tuzatishga yordam bering. O‘qituvchingizga bu haqa og‘zaki ma‘lumot bering.

Sinfdoshlaringizdan birining “Shifokor ham davolay olmaydigan kasalliklar” mavzusida yozgan matniga yozma munosabat bildiring. Buning uchun quyidagi jihatdarga e’tibor qarating:

- sanalgan “kasallik”lar;
- qaysi “kasallik”ni davolash uchun tavsiyalar berganligi;
- aynan ushbu matnga munosabat bildirganingiz sababi;
- yozilgan matnning sizga yoqqan va yoqmagan jihatlari [Ona tili, 2022; 22, 24, 32].

I.A.Sotova o‘quvchining o‘z-o‘zini nutqiy nazorat qilish va tuzgan matnni takomillashtirishga bo‘lgan barqaror motivlarni yuzaga keltrish zarur degan ma’noda o‘quv faoliyatini tashkil qilishning quyidagi tadbirlarini tavsiya qiladi:

- Atoqli adiblar, so‘z ustalarining qo‘lyozma ustida ishslash haqidagi fikrlarini tahlil qilish.
- Yozuvchilarning qoralama va tugallangan matn variantlarini qiyoslash...
- O‘quvchilarning matnni tadqiq etishlari, jarayonida muammoli savollar berishlari va o‘zlarini javob qaytarishlariga undaydigan topshiriqlar berish.
- O‘quvchilarda yozgan narsalarini boshqalarning tushunishiga, buning uchun o‘z fikrlarini tushunarli va aniq bayon qilishga ehtiyoj shakllantirish.
- O‘z ishlari natijalarini qiyosiy tahlil qilish. Bunda bolalar o‘z qoralama tuzgan matnlari bilan yakunmy variantni taqqoslashlari va sifat o‘zgarishlarini ko‘rsatishlari kerak [Сотова, 2007; 8–14].

Xullas, ona tili darslarida matn tuzishga doir bilimlarni mustahkamlash ishlari tahlil, konstruksiyalash-sintezlash, qisman ijodiy konstruksiyalash-sintezlash, matn tuzish va xatolar ustida ishslash, tuzilgan matnni tahrir qilib boyitishga qaratilgan mashqlar tizimi orqali samarali amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. Гац И.Ю. Целенаправленный комплекс сил... (О работе по культуре речи на основы текста) / Русский язык в школе. – 2007. № 5. – С. 9. (7–11).
2. О.О. Харченко. Через постижение «тайны языка» – к текстовой компетенции. Начальная школа. 2007. №5 – С. 37.
3. Ona tili: 6-sinf uchun darslik / K.M.Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 224 b.
4. Сотова И.А. Мотивация самоконтроля над качеством письменного текста / Русский язык в школе. – 2007. № 4. – С. 8–14.

РЕЗЮМЕ

Maqolada umumiyl o‘rta ta’lim maktablarining ona tili darslarida matn tuzilishini o‘rganishga oid tahliliy, konstruksiyalash-sintezlash, qisman ijodiy konstruksiyalash-sintezlash, matn tuzish va xatolar ustida ishslash, tuzilgan matnni tahrir qilib boyitishga qaratilgan mashqlar haqidagi so‘z boradi.

РЕЗЮМЕ

В статье речь идет об аналитическом, построении-синтезе, частично творческом построении-синтезе, составлении текста и работе над ошибками, редактировании и обогащении структурированного текста в классах родного языка общеобразовательных школ.

SUMMARY

The article deals with analytical, construction-synthesis, partly creative construction-synthesis, text composition and error correction, editing and enrichment of structured text in the native language classes of secondary schools.